



Global Conference on Multidisciplinary Research and Innovation

Hosted Online from Berlin, Germany

Date: 2nd May, 2026

Website: <https://econferencia.com>

OILADA BOLALARNI MA'NAVY-AXLOQIY TARBIYALASHDA MILLIY QADRIYATLARDAN FOYDALANISH MAZMUNI

Xamidova Feruza Turdiyevna

Navoiy davlat universiteti, "Pedagogika" kafedrasida dotsenti

Karimova Malikabonu Jo'rabek qizi

Navoiy davlat universiteti Pedagogika ta'lim yo'nalishi 2-bosqich talabasi

Annotatsiya:

Mazkur maqolada milliy qadriyatlarning inson kamoloti, ma'naviy-axloqiy tarbiyasi hamda jamiyat taraqqiyotidagi o'rni yoritilgan. Unda oila va maktab hamkorligi, yosh avlodni milliy ruhda tarbiyalash hamda inson qadr-qimmatini ulug'lash masalalari tahlil qilingan. Shuningdek, mustaqillik yillarida milliy qadriyatlarni tiklash, fuqarolarning huquqiy va ma'naviy madaniyatini oshirish bo'yicha amalga oshirilgan islohotlar bayon etilgan. Tadqiqot natijalari milliy qadriyatlar jamiyat barqarorligi, ma'naviy yuksalish va barkamol avlodni tarbiyalashning muhim omili ekanligini ko'rsatadi.

Kalit so'zlar: milliy qadriyatlar, ma'naviyat, oila tarbiyasi, huquqiy madaniyat, barkamol avlod, ma'naviy-axloqiy tarbiya, oila va maktab hamkorligi, inson qadri, demokratik jamiyat.

Jamiyatda milliy qadriyatlarni o'z qalbida mustahkam saqlash, atrof-muhit, tabiat va hayotni go'zal, farovon qilish, demokratiya asoslari hamda jamiyatda amal qilayotgan progressiv g'oyalar buyuk qadriyat hisoblanadi. Inson qadriyati uning dastavval o'z-o'ziga va shu jamiyatga bo'lgan xurmati hamda munosabati, xulq-atvori bilan chambarchas bog'liq bo'ladi. Bu insonga o'z xulq-atvorini tartibga solishi, o'ziga nisbatan talabchanlik va nazoratni kuchaytirishga imkon beradi.



Global Conference on Multidisciplinary Research and Innovation

Hosted Online from Berlin, Germany

Date: 2nd May, 2026

Website: <https://econferencia.com>

Insonning o'z-o'zini hurmat qilishi, o'z or-nomusi hamda obro'sini saqlab kolishiga imkon beradi. Bu esa unga milliy o'zligini anglash orqali vujudga keladigan jarayondir. Insonning shaxsiy qadr-qimmatini milliy qadriyatlardan kelib chiqadigan ijtimoiy xususiyatlaridan bo'lib, uni yuksaklikka olib boruvchi oliyjanob bir kuchdir. SHu jihatdan qadriyatlar insonning ijtimoiy erkinligini va ma'naviy pokligini ta'minlovchi bir buyuk manbadir. Uning o'zi va atrofida uchun foydali, samarali jihatlarning kupayib borishi nafaqat uning o'zini, balki atrofida uchun ma'naviy-axloqiy xislatlarini ham tuzatib boradi. SHu sababni jamiyat taraqqiyoti talablarida inson qadriyati milliy qadriyatlardan kelib chikishiga ko'ra ijtimoiy mazmun-mohiyatga egadir, ular insonning ta'limi, tarbiyasi va kundalik mehnat faoliyati natijasida shakllanadi.

Inson shaxsi, ijtimoiy tarbiyadan kelib chiqadigan qadriyatlar, inson manaviy-axloqiy miyorlari, xulq-atvori va yurish turishini tartibga solib turadigan bir kuchdir. Buning ta'siri natijasida insonning nafaqat xarakteri, balki uning xayoli yangicha mazmun kasb etib, boyib boradi. Mustakillik yillarida milliy qadriyatlar tiklanishi natijasida inson qadr-qimmatini e'zozlash uning bilimi, madaniyat saviyasini o'stirish hamda ichki qobiliyat-ko'nikmalarini rivojlantirishga keng yo'l ochildi so'nggi o'n yilliklar davomida inson shaxsi, uning haq-huquqlari, erkinliklari va qadr-qimmatini muhofaza qilish bo'yicha ancha katta ishlar amalga oshirildi. Bulardan eng diqqatga sazovor jihati oila va maktab hamkorligini kuchaytirish, uning samaradorligi oshirishga qaratilganligidir.

Oila tarbiyasida milliy qadriyatlarning ta'siridan samarali foydalanish shu oilaga jamiyat tomonidan yaratilgan imkoniyat va shu oilaning ijtimoiy himoya qilinganligi darajasi bilan bog'liq bo'lib, ularni quyidagi yo'nalishlarda kuzatish mumkin: oilaning ijtimoiy himoyalanganligi. Respublikamizda «Oila yili», «Ijtimoiy himoya» yili kabi Davlat dasturlari asosida xalqqa ko'rsatiladigan ijtimoiy himoya chora-tadbirlarida o'z aksini topgan; oilada va jamiyatda



Global Conference on Multidisciplinary Research and Innovation

Hosted Online from Berlin, Germany

Date: 2nd May, 2026

Website: <https://econferencia.com>

bolalarning himoya qilinishi; talim-tarbiyaning qo'llab-quvvatlanishi.

Inson qadriyati milliy qadriyatlaridan kelib chiqishi jihatidan ijtimoiy mazmun-mohiyatga egadir, ular insonning ta'limi, tarbiyasi va kundalik mehnat faoliyati natijasida shakllanadi. Inson shaxsi ijtimoiy tarbiyadan kelib chiqadigan qadriyatlar inson manaviy-axloqiy me'yorlari, xulq-atvori va yurish-turishini tartibga solib turadigan bir kuchdir. Buning ta'siri natijasida insonning nafaqat xarakteri, balki uning fikr-xayoli yangicha mazmun kasb etib boyib boradi. Mustaqillik yillarida milliy qadriyatlarning tiklanishi natijasida inson qadriyatini o'rniga qo'yish, uning bilimi, madaniyat saviyasini o'stirish hamda ichki qobiliyat-ko'nikmalarini rivojlantirishga keng yul ochildi. So'nggi o'n yilliklar davomida inson shaxsi, uning haq-huquqlari, erkinliklari va qadriyatini muhofaza qilish bo'yicha ancha katta ishlar amalga oshirildi. Bulardan eng muhimi oila va maktab hamkorligini kuchaytirish, uning samaradorligi oshirishga qaratilgan tadbirlardir.

Ushbu yo'nalish yurtimizda «Talim to'g'risida» gi yangi qonun qabul qilinishi, qadimgi obidalarining tiklanishi, unutilgan tarixiy shaxslar nomlarining tiklanishi, sobiq sho'ro davrida ta'qiqlangan diniy e'tiqodimiz, islom farzlarini to'liq bajarishga keng imkoniyat yaratilganligi, diniy bayramlar, nashrlarga ruxsat etilishidir.

Shavkat Mirziyoyevning milliy qadriyatlar haqidagi fikrlari O'zbekistonning ma'naviy va madaniy tiklanishiga katta ahamiyat berilayotganini ko'rsatadi. Uning siyosati xalqimizning azaliy qadriyatlarini saqlash va rivojlantirishga qaratilgan bo'lib, bu O'zbekistonning kelajakdagi taraqqiyotiga mustahkam poydevor yaratadi. Shavkat Mirziyoyevning ma'naviyatga oid fikrlari jamiyatni rivojlantirishda muhim ahamiyatga ega. Uning so'zlariga ko'ra, jamiyat hayotining tanasi iqtisodiyot bo'lsa, uning joni va ruhi ma'naviyatdir. Shu sababli, yangi O'zbekistonni barpo etishda iqtisodiyot bilan bir qatorda, ajdodlarimizning boy



Global Conference on Multidisciplinary Research and Innovation

Hosted Online from Berlin, Germany

Date: 2nd May, 2026

Website: <https://econferencia.com>

merosi va milliy qadriyatlarga asoslangan kuchli ma'naviyatni shakllantirish zarur Prezident Mirziyoyevning fikricha, har bir davlat va xalq intellektual salohiyati va yuksak ma'naviyati bilan qudratlidir. Bunday yengilmas kuch manbai esa avvalo insoniyat tafakkurining buyuk kashfiyoti – kitob va kutubxonalarda mujassamdir. O'zbek va turk xalqlarining ildizi bir, ma'naviyati mushtarak bo'lib, Imom Buxoriy, Beruniy, Xorazmiy, Ibn Sino, Jaloliddin Rumi, Yunus Emro, Alisher Navoiy kabi buyuk ajdodlarimizning merosi xalqlarimizning milliy yuksalishiga katta hissa qo'shgan.

Mamlakatimizda ijtimoiy-iqtisodiy va ma'naviy-madaniy jabhalarda amalga oshirilayotgan tub islohotlar jarayonida oila masalasiga e'tibor davlat siyosati darajasiga ko'tarildi. Albatta bu bejiz emas, chunki porloq ertamizning tamal toshlari oilada qo'yiladi. Mirziyoyev ma'naviyatni vijdon ishi deb biladi va vijdoni, ma'naviyati bor inson Vatanni yaxshi ko'radi, deb ta'kidlaydi. Uning fikricha, ma'naviyat va ma'rifatga e'tibor qaratish har qachongidan ham muhimdir, chunki bu jamiyatni barqaror va adolatli qilishda asosiy omil hisoblanadi.

Mamlakatimizda oila, onalik va bolalikni ijtimoiy muhofaza qilish davlatimiz siyosatining ustivor yo'nalishlaridan biri ekan, u quyidagi asosiy yunalishlarni o'z ichiga qamrab oladi:

- —oilaviy munosabatlarning huquqiy asoslarini takomillashtirish, oila manfaatlari huquqiy himoya qilinishini ta'minlash, onalik va bolalik huquqlarini muhofaza qilish;
- —oilaning ijtimoiy manfaatlarini ta'minlash uchun shart-sharoitlar yaratish, oila a'zolarining sog'ligini muhofaza qilish va ta'lim darajasini oshirish uchun shart-sharoitlarni yaxshilash
- Oilaning iqtisodiy manfaatlarini ta'minlash uchun shart-sharoitlar yaratish, oilaning daromadlarini, oila a'zolarining ish bilan ta'minlash darajasini oshirish, ro'zg'or yumushi va turmush sharoitlarini yaxshilash, kam ta'minlangan oilalarni



Global Conference on Multidisciplinary Research and Innovation

Hosted Online from Berlin, Germany

Date: 2nd May, 2026

Website: <https://econferencia.com>

davlat tomonidan qoo'llab-quvvatlash;

- ilaning ma'naviy-ahloqiy asoslarini va madaniy manfaatlarini takomillashtirish uchun shart-sharoitlar yaratish;
- oilaning sog'lom, aql-zakovatli yosh avlodni tarbiyalashdagi rolini oshirish har tomonlama kamol topgan avlodni tarbiyalashda oila va jamiyatning vazifalarini takomillashtirish;
- oila muammolarini ilmiy va ijtimoiy tadqiq, etish, oila, xotin-qizlar va bolalarning iqtisodiy va ijtimoiy ahvolini koo'rsatuvchi statistika hisobotini too'plash va takomillashtirish.

Darhaqiqat, Vatanimiz mustaqilligining qisqa davri ichida oila, onalik va bolalikni huquqiy manfaatlarini qonuniy muxofaza qilish, fuqarolarning huquqiy madaniyatini oshirish, oilaning ijtimoiy-iqtisodiy manfaatlarini ta'minlash, uy mehnati va madaniy-maishiy turmush sharoitini yaxshilash, oilaning ma'naviy-ahloqiy asoslarini takomillashtirish, ko'p bolali, kam ta'minlangan, nochor oilalarni, nogironlarni, qarovchisiz keksalar, yolg'izlarni, yetim-esirlarni ijtimoiy qoo'llab quvvatlash, oilada ma'naviy va jismoniy barkamol shaxsni shakllantirish borasida keng qamrovli ishlar amalga oshiriladi.

Mamlakatimizda adolatli, huquqiy, demokratik jamiyat qurish jarayoni shaxdam qadamlar bilan borayotgan bir sharoitda qonun ustivorligini ta'minlash zamirida oila a'zolarining huquqiy madaniyatini shakllantirish oila manfaatlarini ta'minlash borasida amalga oshirilayotgan ustivor yo'nalishlaridan biriga aylanib qoldi.

Foydalanilgan adabiyotlar ruyxati

- 1.Mirziyoev Sh.M. Buyuk kelajagimizni mard va olijanob xalqimiz bilan birga quramiz. - Toshkent, O'zbekiston, 2017. - 488 b.
- 2.Mirziyoev Sh.M. Erkin va farovon, demokratik O'zbekiston davlatini birgalikda barpo etamiz. - Toshkent, O'zbekiston, 2016. - 56 b.



Global Conference on Multidisciplinary Research and Innovation

Hosted Online from Berlin, Germany

Date: 2nd May, 2026

Website: <https://econferencia.com>

3. Abdullaeva B.S., Umarov A.Yu., Saidova B.N. Pedagogika nazariyasi va tarixi. [Matn]: darslik/ T.: Nodirabegim, 2021. – 492 b.

4. Muslimov N.A va boshqalar. Innovasion ta'lim texnologiyalari. O'quv-metodik qo'llanma. – T.: “Sano-standart”, 2015. – 208 b. Ishmuhamedov R.J., 5.M.Mirsolieva. O'quv jarayonida innovasion ta'lim texnologiyalari. – T.: «Fan va texnologiya», 2017, 60 b.

6. Saidova B.N., Abdullaeva D.N. Pedagogika nazariyasi va tarixi. [Matn: Pedagogika tarixi bo'limi]: darslik/ T.: Bookmany print, 2023. – 324 b.